

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XASANOVA DILOROMXON TO‘YCHIYEVNA**

**XALQ TABOBATI UCHUN SHIFOBAXSH YOGURLAR OLISH  
VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09-Tovarlar kimyosi**

**14.00.41-Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**  
**Contents of the dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)**

**Xasanova Diloromxon To‘uchiyevna:**

Xalq tabobati uchun shifobaxsh yogurtlar olish va ularni sinflash ..... 3

**Хасанова Дилоромхон Туйчиевна:**

Получение и классификация лечебных йогуртов для народной медицины  
..... 29

**Khasanova Diloromkhon Tuychievna:**

Production and classification of medicinal yogurt for traditional medicine.....55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Spisok opublicovannix rabot

List of published works.....59

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XASANOVA DILOROMXON TO‘YCHIYEVNA**

**XALQ TABOBATI UCHUN SHIFOBAXSH YOGURLAR OLISH  
VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09-Tovarlar kimyosi**

**14.00.41-Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/K182 raqam bilan ro'yhatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.adu.uz) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchilar:**

**Asqarov Ibroxim Raxmanovich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Yo'lchiyev Aslbek Baxtiyorbekovich**

texnika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xo'jayev Voxobjon Umarovich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Shamsuddinov Isroiljon Turg'unovich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Xolboyev Yusufjon Xakimovich**

kimyo fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "20" 02 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel: (99877) 223-88-30, faks (99874) 223-84-33).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_ raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi, 129. Tel: (99877) 223-88-30, faks (99874) 223-84-33), e-mail: agsuinfo@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" \_\_\_02\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil "10" \_\_\_02\_\_\_ dagi \_\_\_50\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.M.Kirgizov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, k.f.d., professor

**M.M.Mo'minjonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

**M.M.Xojimatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda aholi sonining o'sib borishi bilan bog'liq holda, kamqonlik, qabziyat kabi kasalliklar bilan kurashib kelayotgan insonlarni xalq tabobati yordamida davolash uchun oziq-ovqat sanoatining xom-ashyolaridan foydalanib yangi turdagi oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada undirilgan bug'doy va arpa donlari asosida, tabiiy, zararsiz, ekologik toza oziq-ovqat qo'shilmalari va tovarlar ishlab chiqish ularning biologik faolligini aniqlash hamda xalq tabobati amaliyotida qo'llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda inson organizmidagi immun va ichak tizimi bilan bog'liq murakkab kasalliklarni davolashda sintetik dori vositalari va tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada oshqozon ichak faoliyatini yaxshilaydigan, qonni kislorod bilan to'yinishiga yordam beradigan, organizmni yoshartiradigan, immun tizimini mustahkamlaydigan, tabiiy kimyoviy birikmalar mavjud bo'lgan xom-ashyolar asosida, kasalliklarni xalq tabobati usullari bilan davolash va oldini olishda sintetik dori vositilariga yordam sifatida qo'llaniluvchi, tarkibida makro va mikro elementlar, flavanoidlar va vitaminlar kabi birikmalar saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini va tarkibi boyitilgan yogurtlarning optimal tarkiblarini ishlab chiqish, TIF TN bo'yicha sinflash hamda amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuning uchun ham, kamqonlik, qabziyat kabi kasalliklar bilan kurashib kelayotgan insonlarni xalq tabobati yordamida davolash uchun oziq-ovqat sanoatining xom-ashyolaridan, jumladan, yogurt aspsida yangi turdagi oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish, kimyoviy tarkibini aniqlash, hamda tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha sinflash muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda mahalliy hom ashyolar asosida samarali biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish, hamda xalq tabobati yo'nalishida ilmiy izlanishlarni yuqori darajada tashkil etish, oshqozon ichak va boshqa turdagi kasalliklarni oldini olish va davolash hususiyatiga ega bo'lgan xom ashyolar asosida oziq-ovqat qo'shilmalari hamda, tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha sinflash borasida muayyan natijalarga erishilgan. Yangi O'zbekiston-ning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> "oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, undirilgan bug'doy, arpa donlari asosida tarkibida inson organizmi uchun foydali birikmalar saqlagan, oziq-ovqat qo'shilmalari va tarkibi boyitilgan yogurtlardan xalq tabobatida foydalanish va tovarlarga TIF TN bo'yicha yangi tovar kodlarini amaliyotga qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli, 2017 yil 7 noyabrdagi "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni.

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5229-sonli farmonlari va 2018 yil 12 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3968-son qarori hamda, boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Undirilgan bug'doy va arpa donlaridan biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari olish va ularning tadqiqotiga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning etakchi ilmiy markazlarida hamda, oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Avstraliyaning Adelaida universiteti, Saskachevan, Daniyaning Carlsberg tadqiqot markazi, The Ohio state university (AQSH), Department of Pharmacy, Dalhousie University, Saskachevan universiteti, (Kanada), Department of Chemistry, Tulane University (AQSH), Department of Chemistry, McGill University (Kanada), Technische Universitat Chemnitz, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry (Germaniya), Departamento de Tecnología de los Alimentos, Universitat Politècnica de València (Ispaniya), School of Chemical Sciences National Institute of Science Education and Research (Hindiston), State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing University (Xitoy), Department of Chemistry, Faculty of Science, Taif University (Saudiya Arabistoni), Department of Chemistry, Recep Tayyip Erdogan University (Turkiya), Racah Institute of Physics, The Hebrew University (Isroil), O'zbekiston Respublikasi FA Bioorganik kimyo instituti, O'simlik moddalari kimyosi institutida olib borilmoqda.

boshqali donlarning kimyoviy tarkibini o'rganish va kasalliklarni davolovchi hamda proflaktika qiluvchi vositalar olish bo'yicha tadqiqotlar natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, undirilgan bug'doy va arpa solodlari tarkibidagi makro- va mikroelementlarning miqdorini aniqlash usullari ishlab chiqilgan (Dipartimento di Chimica Industriale "Toso Montanari", Università di Bologna, Italiya); undirilgan bug'doy va undirilgan arpa donlarining antioksidant hamda biologik faolligi isbotlangan (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Polsha); oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibini undirilgan bug'doy va arpa solodlari asosida boyitish usullari ishlab chiqilgan (Department of Inorganic Chemistry, Faculty of Pharmacy, University of Medicine and Pharmacy, Ruminya); tarkibida biologik faol birikmalar saqlagan dorivor mahsulotlarni boyitish texnologiyasi yaratilgan (Department of Inorganic Chemistry, Faculty of Pharmacy, University of Medicine and Pharmacy, Ruminya); antivirus ta'sirga ega birikmalar asosida tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqish usullari takomillashtirilgan (State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <http://www.firp.state.fl.us>, <http://www.dobersek.com>, <http://www.ichp.pl>, <http://www.csj.jp>, <http://en.ustc.edu.cn>, <http://chem.iitm.ac/in>, <http://dmpe.aut.ac.ir>, <http://www.niuif.ru>, <http://www.ionx.uz> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

University (Xitoy); ayrim bug'doy va arpa navlari tarkibidagi birikmalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O'simlik moddalar kimyosi instituti, O'zbekiston), tashqi savdo tovarlarini sertifikatlanishi to'liqligini ta'minlashning kengaytirilgan TIF TN ga asoslangan ayrim axborot va matematik modellari ishlab chiqilgan (Toshkent bo'jxona instituti, O'zbekiston).

Dunyoda shifobaxsh undirilgan bug'doy va arpa solodlari asosida inson organizmidagi umumiy va jarroxlikdan keyingi quvvatsizlik, immunitet tushishi, kamqonlik, teri, onkologik, hazm tizimi bilan bog'liq kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish hamda, ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qator ustivor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, undirilgan bug'doy va arpa tarkibidan biologik faol moddalar asosida funktsional ovqatlanish uchun oziq-ovqat mahsulot turlarini takomillashtirish; olingan tovarlarning tarkibini fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash, ularning biologik faolligi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash; mahsulotlar tarkibidagi turli biologik faollikga ega bo'lgan nutrientlarni aniqlash; oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini makroelementlar saqlagan undirilgan boshhoqli donlar bilan boyitish; shifobaxsh undirilgan bug'doy va arpa donlari qo'shilgan pastalari va yogurtlar ishlab chiqish hamda, ular yordamida ayrim kasalliklarni xalq tabobati usulida davolash; olingan oziq-ovqat qo'shilmalari va shifobaxsh yogurtlarni kimyoviy tarkibiga ko'ra TIF TN asosida yangi tovar kodlari ishlab chiqish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Undirilgan bug'doy va arpa donlaridan biologik faol moddalar ajratib olish va oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini boyitish, oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish, tovarlarning kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflash, xalq tabobati uchun mo'ljallangan tovarlar olishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislari, jumladan: N.V.Tyutyuma, A.F.Tumanyan, G.A.Gorelikova, M.S. Gorbunchikova, Klinovaya M.A.Rogov I.A., Demidov A.V., Shvetsov N.N., Zuev N.P., Butenko L.I., Paxomov A.N., Levachev M.M., Tutel'yan V.A., Markova Ye.G., Dontsova T.N., Bordinova V.P., Sokolova O.N., Myachikova N.I., Sorokopudov V.N., (Rossiya), Curtis, B.C., Nils Shtayn, Ken Chalmers Lafianra, D.; Riccardi, G.; Shewry, P.R., Selvendran, R.R.; Stevens, B.; Du Pont, M.S, Gaurav Kumar Pal., Suresh P.V. biokimyoviy jarayonlar, oziq-ovqat qo'shilmalari va biologik faol moddalar olish, tabiiy mahsulotlarni inson organizmida hazm bo'lishi va ichak, jigar faoliyati, buyrak yallig'lanishi, qandli diabet, mikroba va viruslarga, hamda saraton hujayralariga qarshi ijobiy ta'sir ko'rsatishi borasida yangi tabiiy vositalarni kashf etgan.

Respublikamizda bu yo'nalish rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov, K.S.Safarov, F.A.Umarova, A.A.Abdurahmanov, F.M.Nizomitdinov, Sh.K.Xidoyatova, N.K.Yuldasheva, N.T.Ul'chenko, N.V.Korableva, S.D.Gusakova, Sh.Sh.Sagdullaev, K.Toxtaxunov va boshqalar tomonidan undirilgan bug'doydan olingan tovarlarni sinflash, xalq tabobatini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini funktsional ingredientlar bilan boyitishda undirilgan boshhoqli donlardan foydalanish orqali, undirilgan bug'doy va arpa donlari tarkibidagi ingredientlarni saqlab qolish maqsadida, o'ta yuqori chastotali elektr magnit maydonidan foydalanish, solodlar yordamida oziq-ovqat qo'shilmalarining optimal tarkibini ishlab chiqish, ular asosida xalq tabobati uchun mo'ljallangan tovarlar olish

va ularning kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi tovar kodlarini ishlab chiqish muhimligi aniqlangan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xalq xo'jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** undirilgan bug'doy va arpa donlari asosida oziq-ovqat qo'shilmalari va xalq tabobatiga mo'ljallangan tarkibi boyitilgan yogurtlar olish hamda ularni kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha sinflashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

undirilgan bug'doy va arpa donlarini kimyoviy tarkibini, biologik faolligini zamonaviy metodlar yordamida aniqlash;

undirilgan bug'doy, arpa solodlaridan o'ziga hos ta'mni yo'qotish va quritish maqsadida, o'ta yuqori chastotali elektr magnit maydonida ishlov berishning optimal ko'rsatkichlarini aniqlash;

undirilgan bug'doy va arpa donlari asosida kamqonlikka qarshi, immun tizimini faollashtiruvchi, ovqat hazm qilish tizimini me'yorlashtiruvchi bug'doy va arpa solodlarining turli miqdoriy nisbatlaridagi oziq ovqat qo'shilmalarining optimal tarkibi aniqlash;

undirilgan bug'doy va arpa solodlari hamda, ular asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalari yordamida xalq tabobatiga mo'ljallangan boyitilgan yogurtlar tarkibini ishlab chiqish;

undirilgan bug'doy va arpa solodlari yordamida xalq tabobati uchun mo'ljallangan oziq-ovqat qo'shilmalari va boyitilgan yogurtlarni mikrobiologik va toksikologik ko'rsatkichlarini aniqlash;

oziq-ovqat qo'shilmalari va boyitilgan yogurtlarni fizik-kimyoviy hamda spektral xususiyatlarini aniqlash hamda klinik kuzatuvlar o'tkazish;

olingan oziq-ovqat qo'shilmalari va boyitilgan shifobaxsh yogurtlar uchun yangi TIF TN tovar kodlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishdan iborat.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida undirilgan bug'doy va arpa solodlari, ular asosida tayyorlangan "NUB-bug'doy" va "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalari hamda, yog'siz yogurt olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bug'doy, arpa donlarining, solodlarning, "NUB-bug'doy", "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalarining, tarkibi boyitilgan "Astriy" va "Asday" yogurtlarining fizik-kimyoviy va organoleptik ko'rsatkichlarini aniqlash, xalq tabobati usullarida klinik tadqiqotlar o'tkazish, olingan tovarlarni kimyoviy tarkibiga ko'ra TIF TN bo'yicha yangi tovar kod raqamlari ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot usullari:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda bug'doy, arpa donlarining, solodlarning, "NUB-bug'doy", "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalarining, tarkibi boyitilgan "Astriy" va "Asday" yogurtlarini tadqiq etishda YuSSX, GX va boshqa fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullaridan hamda tadqiqot natijalarining tahlili va grafik sharhlarida MS Word, MS Excel dasturlari paketidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor bug'doy va arpa solodlari, hamda ularni turli nisbatdagi aralashmalarini antioksidant faolligi spektrofotometrik usul yordamida aniqlanib, ular orasida arpa solodining individual xolatdagi antioksidant faolligi eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlandi;

ilk bor solodlar olishda an'anaviy konvektiv quritishdan oldin o'ta yuqori chastotali elektromagnit maydonida 150 Vt da 10 daqiqa davomida 40 mm qalinlikdagi solodga ishlov berish jarayon davomiyligi 2,5-2,7 marotabagacha qisqarish imkonini berishi isbotlangan;

inson organizmidagi ichak faoliyatini yaxshilaydigan, qabziyatni oldini oluvchi va davolovchi hamda, spazmlarni kamaytiradigan, xalq tabobati uchun mo'ljallangan tarkibi boyitilgan "Asday" va "Astriy" yogurtlari olingan hamda ularning shifobaxshlik xususiyatlari fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari orqali isbotlangan;

undirib quritilgan solodlar asosida immun tizimining faolligini, qondagi gemogloblin miqdorini oshiradigan "NUB-bug'doy" va "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalarining olingan hamda ularning antioksidant faolligi NUB-arpada yuqori ekanligi aniqlangan;

xalq tabobati uchun mo'ljallangan "Asday", "Astriy" tarkibi boyitilgan yogurtlarining, "NUB-bug'doy", "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalarining toksik emasligi va kundalik ratsionda funktsional ovqatlanishda ratsional foydalanish mumkunligi isbotlangan;

undirilgan bug'doy va arpa solodlari yordamida oziq-ovqat qo'shilmalari hamda, ular asosida olingan tarkibi boyitilgan yogurtlarning antioksidant faolligi qabziyat va kamqonlikga ijobiy ta'siri xalq tabobati usullari bilan davolash orqali isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bug'doy va arpa solodlarining tarkibidagi nutrientlarni saqlab qolish va solodlardagi xom oqsil ta'mini yo'qotish maqsadida o'ta yuqori chastotali elektr magnit maydonida ishlov berish usuli samarali ekanligi aniqlangan;

bug'doy va arpa solodlari saqlovchi oziq-ovqat qo'shilmalari va ular asosida boyitilgan yogurtlar xalq tabobati usullarida kamqonlik va qabziyat kasalliklarini oldini olish va davolash xususiyatiga ega ekanligi aniqlangan;

solodlar yordamida olingan oziq-ovqat qo'shilmalari va ular asosida olingan tarkibi boyitilgan yogurtlarga kimyoviy tarkibi asosida, tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha tovar kodlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olib borilgan tadqiqotlarda bug'doy, arpa donlarining, solodlarning, "NUB-bug'doy", "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalarining, "Asday" va "Astriy" yogurtlarini tarkibini fizik-kimyoviy tahlili zamonaviy YuSSX, GX va boshqa fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullarini qo'llagan holda, laboratoriya va tajribaviy-ishlab chiqarish sharoitlarida olingan ma'lumotlarni ishonchli oralig'ining chegaraviy qiymati nazariy natijalariga mosligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olib borilgan tadqiqotlarda bug'doy, arpa donlarining, solodlarning, "NUB-bug'doy", "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalarining, boyitilgan "Astriy" va "Asday" yogurtlarini tarkibini fizik-kimyoviy tahlili zamonaviy YuSSX, GX va boshqa

fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullaridan foydalanib aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, birinchi marotaba bug'doy va arpa donlaridan olingan solodlarni quritishda o'ta yuqori chastotali elektr magnit maydonidan foydalanilganligi, xalq tabobati usullari orqali solodlar yordamida qondagi gemogloblin miqdorini oshiruvchi jigar va o't pufagining funksiyalarini qo'llab-quvvatlaydigan, ichak faoliyatini yaxshilaydigan, meteorizm hamda, spazmlarni kamaytiradigan "NUB-bug'doy" va "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalari va ular asosida "Astriy" va "Asday" boyitilgan yogurtlarning optimal tarkiblarini ishlab chiqilganligi hamda, kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi tovar kod raqamlari ishlab chiqilganligi hamda bojxona amaliyotida foydalanish uchun xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Undirilgan bug'doy va arpa asosida oziq-ovqat qo'shilmalari va xalq tabobati uchun mo'ljallangan yogurtlar olish va ularni sinflash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

undirilgan bug'doy va arpa donlari solodlari tarkibidagi foydali nutrientlarni maksimal saqlab qolish maqsadida, an'anaviy konvektiv quritishdan oldin o'ta yuqori chastotali elektr magnit maydonda qisqa muddatli ishlov berish "Cibus natural" MCHJda amaliyotiga joriy qilingan («O'zbekiston oziq-ovqat sanoati» uyushmasining 2024 yil 20 sentyabrdagi 20-86/09-24-son ma'lumotnomasi). Natijada solodni quritish jarayonini 2,5-2,7 marotaba qisqartirish imkonini bergan;

o'ta yuqori chastotali elektr magnit maydonida ishlov berib olingan solodlar va ular asosida olingan oziq-ovqat qo'shilmalari yordamida yogurtlar tarkibini boyitish texnologiyasi "Express Milk" MCHJda amaliyotiga joriy qilingan («O'zbekiston oziq-ovqat sanoati» uyushmasining 2024 yil 20 sentyabrdagi 20-86/09-24-son ma'lumotnomasi). Natijada an'anaviy mevali yogurtlar ishlab chiqarishda meva va meva qo'shilmalarining sarfini 1,5% ga qisqartirish, boyitilgan yogurtlar tarkibidagi polifenollar, salitsil kislotasi, kvartsetin, rutin va kofein miqdorilari yuqori ekanligi isbotlangan;

bug'doy va arpa solodlari asosida boyitilgan yogurtlarga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: "bug'doy va /yoki arpa solodi, turli xo'l yoki quritilgan mevalar, yoki ularning ayrim qismlari bilan boyitilgan shifobaxsh yogurt uchun – 040320900 3 tovar kodi davlat bojxona amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi markaziy bojxona laboratoriyasining 2024 yil 04 dekabrda 17/05-24-2117-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarkibi boyitilgan yogurtlarni kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflash fermentlangan sut mahsulotlari assortimentini kengaytirish va eksport-import operatsiyalarida keng foydalanish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 9 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining chop etish uchun tavsiya etilgan

ilmiy nashrlarda 19 ta maqola 6 ta respublika ilmiy jurnallarida va 13 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, besh ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 182 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xalq tabobati uchun biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari olish va ularni kimyoviy tarkibiga ko'ra sinflash”** deb nomlangan birinchi bobida bug'doy va arpa donlarining, hamda undirilgandan keyingi kimyoviy tarkiblarni o'zgarishi batafsil yoritilgan. Arpa va bug'doy donini uyutish, undirish, solod tayyorlash murakkab fiziologik va biokimyoviy jarayon ekanligi hamda, uni kimyoviy nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ldi. Undirilgan arpa va bug'doy asosida olingan oziq-ovqat qo'shilma (OOQ) larni iste'mol qilish hozirda ancha qulay va arzon usullardan biri ekanligi tahlil qilindi. SHuningdek, undirilgan boshqali donlarda organizm uchun foydali bir qator vitaminlar, nutrientlar va aminokislotalar ham mavjudligi adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldi. Undirilgan bug'doy va arpa ovqat hazm qilish tizimiga ijobiy ta'sir qilib, organizmni toksinlardan tozalaydi. Ular asosida olinadigan OOQ lar yordamida bir qator kasalliklarni, jumladan ichak infeksiyalari, tana vazni tushib ketishi, anemiya, energetik zahirani tiklash, ovqat hazm qilishni yaxshilash, xotirani kuchaytirish, shamollash va yallig'lanish, artrit simptomlarini engillashtirish, rak hujayralarini parchalash, ishtahani me'yorlashtirish, qondagi shakar miqdorini boshqarish, qorin dam bo'lishi kabilarni xalq tabobati usullari yordamida davolash mumkinligi aniqlandi. SHu bilan birga, sut mahsulotlari xususan yogurtlar tarkibini undirilgan donlar, ular asosida olingan OOQ bilan boyitish va xalq tabobati usullari bilan davolashga tavsiya qilish hamda olingan tovarlarni kimyoviy tarkibiga ko'ra tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo'yicha sinflash muammolari yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Undirilgan bug'doy va arpa asosida olingan oziq-ovqat qo'shilmalari xom-ashyolari va maxsulotlarini kimyoviy tarkibini o'rganish va taxlil qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida bug'doy va arpa donlari, solodlari hamda yogurtlarni sifat ko'rsatkichlarini, “NUB-bug'doy” va “NUB-arpa” oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi makro - va mikroelementlarni AVIO 200 (ISP – OES) optik emission spektrometrik, xalq tabobatiga mo'ljallangan “Asday” va “Astriy” yogurtlar tarkibidagi polifenol birikmalar, suvda eruvchan vitaminlar miqdorini YuSSX usulida, aniqlash usullari va antioksidantlik ko'rsatkichlarini aniqlashning zamonaviy usullari tavsiflari keltirilgan. Bug'doy va arpa donlaridan tayyorlangan solodlar tarkibidagi

nutrientlarni maksimal darajada saqlab qolish maqsadida, solod yanchilmasiga konvektiv usulda quritishdan oldin, o'ta yuqori chastotali elektr magnit maydonida qisqa muddatli ishlov berishning laboratoriya qurilmasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Undirilgan bug’doy va arpa asosida tayyorlangan oziqovqat qo’shilmalarining kimyoviy tarkibini aniqlash va samaradorligini baxolash natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida olib borilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalari bayon qilingan. Ma'lumki, bug'doy va arpa donlaridan solod tayyorlashda bug'doy tarkibidagi oqsil miqdori, namlik, 1000 dona donning og'irligi, unish energiyasi, unuvchanlik kabi ko'rsatkichlar olinadigan solodning sifatiga ta'sir qilishini inobatga olinib, taxlil qilindi. Tadqiqot uchun foydalanilgan bug'doyning “Bobur” va arpaning “Soyaki” navlarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Tajriba uchun olingan bug’doy va arpa donlarining fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari

№	Ko’rsatkichlar nomi	Foydalanilgan don	
		Bug’doy	Arpa
1	1000 dona don og'irligi, gr	38,5	39,01
2	Namlik, %	13,3	12,47
3	Natura, gr/l	770,25	520,5
4	Unish energiyasi, % (500 ta donga nisbatan)	455 (91,0 ± 0,02)	468 (93,6 ± 0,02)
5	Unuvchanlik, % (500 ta donga nisbatan)	464 (92,0 ± 0,02)	488,6 (97,7 ± 0,02)
6	Oqsil miqdori, %	13,2	9,16
7	Shishasimonlik, %	60,75	61,25

Tajriba uchun tanlab olingan donlar “Bug’doy” TSh 9353-2016 va “Arpa” TSh 28672-2019 da keltirilgan organoleptik va fizik-kimyoviy ko’rsatkichlariga to’liq javob berishi aniqlandi. Donlarni undirish davrida tarkibdagi barcha komponentlarni maksimal darajada biokimyoviy o’zgarishlarga uchrashini, hamda solodlarni sifat ko’rsatkichlariga ijobiy ta’sir qilishi adabiyotlar tahlilidan ma’lum. Sifatli dondan, sifatli solod va ular asosida sifatli oziq-ovqat qo’shilmalari va xalq tabobati uchun mo’ljallangan yogurtlar olishda sifatli xom ashyo sifatida keng foydalanish mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot uchun olingan solodlarning fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Tajriba uchun olingan solodlarning fizik-kimyoviy ko’rsatkichlari

№	Donlar	Ko’rsatkichlar nomi			
		Shishasimonlik, %	Namlik, %	Murtak nishi uzunligi, %	1000 dona don og'irligi, g
1	Bug’doy	10 ± 0,02	47 ± 0,02	78 ± 0,02	150 ± 0,02
2	Arpa	11,2 ± 0,02	44,1 ± 0,02	80 ± 0,02	155 ± 0,02

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan xulosa qilib shuni aytish mummkinki, arpa solodining shishasimonligi GOST talablaridan 2,1% ga, bug'doyniki 1% ga yuqori, namlik ko'rsatkichi talab darajasida, eng muxim ko'rsatkich xisoblangan murtak nishining uzunligi arpa solodida 4% ga bug'doy solodini 2% ga yuqori, 1000 dona don og'irligi arpa solodida 11 gr ga, bug'doyniki 4 gr ga ko'proq ekangiligi aniqlandi.

Undirilgan bug'doy va arpa donlari asosida xalq tabobatiga mo'ljallangan yogurtlar ishlab chiqarishda foydalanish uchun undirilgan donlar (solodlar) ni quritish talab etiladi. Solodlarni quritishda, tarkibidagi kerakli vitamin va oqsillarni hamda, boshqa komponentlar ko'rsatkichlarini saqlab qolish, an'anaviy quritish usulida uzoq vaqt talab etilishini inobatga olib, undirilgan bug'doy va arpa donlariga O'YuCh elektrmagnit maydonida foydalanildi. Sinov-tajriba natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Solodga O'YuCh elektromagnit maydonida ishlov berish natijalari

№	Ko'rsatkichlar nomi	Bug'doy (triticum)	Arpa (hordeum)
<b>1</b>	<b>2450 MGts; 100 Vt</b>	<b>90 min; 44-48%; 80-90°C, 60mm</b>	
a)	Namlik, %	17,4	19,7
b)	Umumiy oqsil miqdori, gr	6,7	5,2
v)	Rangi, hidi va ta'mi	Bug'doy solodiga xos shirin, karamel ta'mli, begona hidlarsiz, to'q qo'ng'ir rangli	Arpa solodiga xos hidli karamel ta'miga ega, begona hid va ta'msiz, to'q qo'ng'ir rangli
d)	Kislota soni, 100 ml susloga sarf bo'lgan 0,1 n NaOH ml	6,2	6,8
e)	Ozuqaviy to'qima, gr	1,0	7,2
l)	Uglevodlar miqdori, gr	40,8	30
<b>2</b>	<b>2450 MGts; 150 Vt;</b>	<b>20 min; 44-48%; 80-90 °C, 70mm</b>	
a)	Namlik, %	14,6	15,2
b)	Umumiy oqsil miqdori, gr	7,2	5,5
v)	Rangi, hidi va ta'mi	Bug'doy solodiga xos shirin, karamel ta'mli, begona hidlarsiz, to'q sariq rangli	Arpa solodiga xos hidli karamel ta'miga ega, begona hid va ta'msiz, to'q sariq rangli
d)	Kislota soni, 100 ml susloga sarf bo'lgan 0,1 n NaOH ml	5,8	6,2
e)	Ozuqaviy to'qima, gr	1,3	7,8
l)	Uglevodlar miqdori, gr	41	31,2
<b>3</b>	<b>2450 MGts; 150 Vt;</b>	<b>10 min; 44-48% 80-90 °C, 40 mm</b>	
a)	Namlik, %	11,2	12,1
b)	Umumiy oqsil miqdori, gr	7,1	5,3
v)	Rangi, hidi va ta'mi	Bug'doy solodiga xos shirin ta'mli, begona hidlarsiz, sariq rangli	Arpa solodiga xos yoqimli hid va ta'mga ega, to'q sariq rangli

d)	Kislota soni, 100 ml susloga sarf bo'lgan 0,1 n NaOH ml	5,5	6,0
e)	Ozuqaviy to'qima, gr	1,4	8,1
l)	Uglevodlar miqdori, gr	41,4	31,7

O'tkazilgan tajriba – sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq tabobatida qo'llaniladigan yogurtlarni tarkibini boyitish uchun undirilgan bug'doy va arpa donlaridan yangi tovar olishda, dastlab 2450 MGts chastotada 150 Vt da, 10 min davomida, 40 mm qalinlikdagi solodlarga ishlov berish, so'ngra an'anaviy quritish pechlarida ishlov berish jarayon davomiyligini 2,5-2,7 marotabagacha qisqartirish imkonini berdi. Solodni kimyoviy tarkibi quritilgandan so'ng maksimal darajada saqlab qolishga erishildi.

Olib borilgan tadqiqotlarimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, mayiz, yong'oq, undirilgan bug'doy va arpa tarkibida inson organizmini immun tizimini mustahkamlovchi kamqonlikni davolovchi, ovqat hazm qilish tizimini yaxshilovchi kerakli komponentlar ko'plab uchrar ekan. Tanlangan xom-ashyolardan bug'doy solodi asosida K-4 (33:33:33) kompozitsiyasi va arpa solodi asosida K-2 (30:30:40) oziq-ovqat qo'shilmalari organoleptik ko'rsatkichlariga ya'ni o'ziga xos yoqimli mayiz va yong'oq ta'mli, yangi undirilgan solod va mayiz-yong'oqning hushbo'y hidiga ega, kompozitsiyaning dumaloq shaklga kelishiga ko'ra, optimal tarkib sifatida qabul qilindi va tanlangan kompozitsiyalarga foydalanilgan xom-ashyolarning lotincha nomlanishining bosh xarflaridan kelib chiqib, "NUB-bug'doy", arpa solodi asosida olingan OOQ ni "NUB-arpa" deb nom berildi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, organoleptik ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, "NUB-bug'doy" va "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi makro va mikroelementlarni AVIO 200 (ISP-OES) optik emission spektrometrik usulida aniqlandi va natijalar taxlil qilindi. Qurilmada faqatgina 20 dona kimyoviy elementni miqdorini aniqlash imkonini mavjudligini inobatga olib, tayyor mahsulotning element tarkibi aniqlandi va olingan tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, "NUB-bug'doy" va "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalarining bir dona granula massasini 35-50 gr miqdoridaligidan kelib chiqib, oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi makro va mikro elementlarning miqdoriy analizi 100 gr oziq-ovqat qo'shilmasiga ko'ra mg/100 gr nisbatida granula holatida sutkasiga 2-3 dona iste'mol qilish tavsiya qilinishi nuqtai nazaridan kelib chiqib makro va mikro elementlarga bo'lgan kunlik extiyojni qondirilishi xisoblandi. Shundan kelib chiqib, 100 gr og'irlikdagi oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi kaliy elementi kunlik extiyojni o'rtacha 156% ga, magniy – 459% ga, temir, va rux – to'la qonli qondira olishi isbotlandi. Shu bilan birga, bunday nurientlar tutgan oziq-ovqat qo'shilmalari xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda keng spektr xosil qilishi isbotlandi.


4-jadval.

Oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi makro-va mikroelementlar miqdori, mg/100 gr

№	Элемент	Микдори	Фоиизи, %	№	Элемент	Микдори	Фоиизи, %
<b>"NUB-буғдой" бўйича</b>							
1	К	8354	8.354	11	Cr	108.4	0.108

2	P	7182.1	7.182	12	Al	83.2	0.083
3	Mg	2012.9	2.012	13	S	29.4	0.029
4	Zn	1994.6	1.994	14	Ba	12.6	0.013
5	B	1598.4	1.598	15	Mo	4.9	0.005
6	Fe	1198.2	1.198	16	Te	3.4	0.0034
7	Cu	1138.4	1.138	17	Li	1.9	0.002
8	Na	733.8	0.733	18	Ni	0.74	0.001
9	Ca	289.5	0.289	19	V	0.56	0.0006
10	Sr	267.4	0.267	20	Co	0.14	0.0001
<b>“NUB-арпа” бўйича</b>							
1	K	7545.2	7.545	11	Cr	118	0.118
2	P	7983.4	7.983	12	Al	-	-
3	Mg	1843.1	1.843	13	S	19	0.019
4	Zn	2057.3	2.057	14	Ba	-	-
5	B	1743.1	1.743	15	Mo	3.7	0.0037
6	Fe	1420.2	1.420	16	Te	-	-
7	Cu	1100.3	1.100	17	Li	1.3	0.0013
8	Na	742.7	0.742	18	Ni	-	-
9	Ca	322.3	0.322	19	V	0.8	0.0008
10	Sr	-	-	20	Co	0.2	0.0002

OOQ qo'shilmalari tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usuli yordamida aniqlandi. Olingan tadqiqot natijalari quyidagi rasmda keltirilgan.



1 - rasm. NUB - bug'doy tarkibidagi PP, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, vitamin C va foliy kislotasi xromotogrammalari

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra undirilgan solodlar yordamida tayyorlangan OOQ larining o'zaro taqqoslama ma'lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

5-jadval.

Oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi vitaminlar miqdori, mg/ml

Nomi	Vitamin B <sub>1</sub>	Vitamin B <sub>2</sub>	Vitamin B <sub>6</sub>	Vitamin B <sub>9</sub>	Vitamin PP	Vitamin C
“NUB-bug'doy”	-	0,04	0,011	0,003	0,4	0,45
“NUB-arpa”	0,01	0,044	0,03	0,014	0,22	0,7

Vitaminlar hayot uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi organik moddalar bo'lib, ularning etishmasligi inson salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Kunlik ovqatlanish ratsioni orqali vitaminlarga bo'lgan kunlik ehtiyoj qondirilishi muhim sanaladi. Ishlab chiqilgan tarkibli oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi vitamindan insonlarni kunlik vitaminlarga bo'lgan ehtiyojini eng kamida vitamin PP bo'yicha “NUB-arpa” 55% ga, vitamin B<sub>6</sub> ga bo'lgan ehtiyojini esa 200% ga qondira olishi aniqlandi. Shuningdek, makroelementlar almashinuvi, gemoglobin sintezi va funktsiyasi, lipidlar sintezida ishtirok etadi. “NUB-arpa” tarkibida vitamin B<sub>6</sub> miqdori bug'doy solodi asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmasiga nisbatan 1,9 mg ga ko'p ekanligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, vitaminga bo'lgan kunlik ehtiyojini NUB-bug'doyga nisbatan 115,39% ga ko'p qondiradi. Vitamin C ning mavjudligi esa biriktiruvchi va suyak to'qimalarining me'yorda ishlashi uchun xizmat qilib, kuchli antioksidant ekanligi aniqlandi. Oziq-ovqat qo'shilmalarining antioksidantligi bo'yicha olingan tadqiqot natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

6 – jadval.

Oziq-ovqat qo'shilmalarining antioksidantlik ko'rsatkichlari

№	Antioksidantlik aktivligi	Oziq-ovqat qo'shilmalari na'munalari			
		K-1	K-2	K-3	K-4
<b>“NUB-bug'doy”</b>					
1	AA (%)	53,27	44,86	54,21	56,07
<b>“NUB-arpa”</b>					
2	AA (%)	62,18	68,23	58,73	63,81

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki optimal tarkib sifatida qabul qilingan “NUB-bug'doy” K-4 oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi antioksidant aktivligi K-1 (25:25:50) ga qaraganda 2,8% ga, K-2 (30:30:40) ga nisbatan 11,21% ga, K-3 (50:20:30) ga nisbatan 1,86% ga yuqori ekanligi aniqlandi. “NUB-bug'doy” oziqovqat qo'shilmasini 3 ta komponentidan olingan na'munani, ya'ni yong'oq va solod komponentlaridan olingan kompozitsiya (K-4) ning antioksidantligi 56,07% ni tashkil qilgan bo'lsa, “NUB-arpa” oziq-ovqat qo'shilmasini K-2 namunasida, arpani antioksidantligini yuqoriligi hisobiga 68,23% eng yuqori ko'rsatkichni nomoyon qildi.

Dissertatsiyaning **“Xalq tabobatiga mo'ljallangan yogurtlar olish va ularni ahamiyati”** deb nomlangan to'rtinchi bobida, xalq tabobatiga mo'ljallangan

yangi turdagi tovarlar olish uchun “Express milk” MCHJ da ishlab chiqarilgan sifat ko’rsatkichlari TSh 31981 – 2013 talablariga mos keluvchi tayyor yogurt massasidan, o’ta yuqori chastotali elektr magnit maydonida quyidagicha ishlov berish sharoitida: O’YuCh chastotasi – 2450 mGts; ishlov berish quvvati – 150 Vt; ishlov berish vaqti – 10-12 min; material namligi – 8-10%; zarracha o’lchami 0,4-0,6 mkm bo’lgan, 1 mm li elakda 10 minut davomida elanganda 80-85% miqdorida o’tadigan darajagacha maydalanib qayta ishlangan undirilgan bug’doy va arpa solodlaridan hamda ular yordamida tayyorlangan “NUB-bug’doy” va “NUB-arpa” oziq-ovqat qo’shilmalaridan foydalangan holda yangi tovarlar olish ustidagi izlanishlar natijalari bayon qilingan.

Buning natijasida, yogurtlar tarkibini boyitish bo’yicha bug’doy va arpa solodlari qo’shib ikki turdagi va ular asosida olingan oziq-ovqat qo’shilmalaridan qo’shib ikki turdagi jami to’rtta yangi tovarlar olishda, tayyor yogurt massasiga turli nisbatlarda qo’shish orqali, yangi tovarlarning optimal tarkibini shakllantirish borasida, o’z tadqiqotlarimizni davom ettirdik.

Solod va OOQ laridan tayyor yogurt massasiga nisbatan 1,0%; 1,5%; 3% va 5% miqdorlarida qo’shib, yangi tarkibi boyitilgan yogurtdan olingan to’rt tovarning organoleptik va fizik-kimyoviy ko’rsatkichlarini o’zgarishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvallarda keltirilgan.

7-jadval

Tarkibi boyitilgan yogurtlarning organoleptik ko’rsatkichlari

№	Oziq-ovqat qo’shilmasi miqdori, %	Organoleptik ko’rsatkichlari			
		tashqi ko’rinishi	Rangi	ta’mi va hidi	gomogenligi
1	1,0	Bir xil qo’yiqlikda gi yopishqoq massa.	Butun massa bo’ylab bir xil sutga xos oq rangli	Begona hid va ta’mlarsiz sof o’ziga xos fermentlangan sut hidi vata’miga ega. Solod ta’mi sezalarsiz	Gomogen
2	1,5	Bir xil qo’yiqlikda gi yopishqoq massa	Butun massa bo’ylab bir xil sutga xos oq rangli	Begona hid va ta’mlarsiz sof o’ziga xos fermentlangan sut va kuchsiz yoqimli solod hidi va ta’miga ega.	Gomogen
2.1	1,5 (oziq-ovqat qo’shilmali)	Ikki xil qo’yiqlikda gi suyuq massa	Butun massa bo’ylab sutga xos va kuchli sariq rangli	Begona hid va ta’mlarsiz sof o’ziga xos fermentlangan sut va kuchsiz solod hidi, mayiz va yong’oq ta’miga ega.	Geterogen

3	3	Ikki xil qo'yiqlikdagi suyuq massa	Butun massa bo'ylab sutga xos va kuchsiz sariq rangli	Begona hid va ta'mlarsiz sof o'ziga xos fermentlangan sut va solod hidi va ta'miga ega.	Geterogen
4	5	Ikki xil qo'yiqlikdagi suyuq massa	Butun massa bo'ylab sutga xos va kuchli sariq rangli	Begona hid va ta'mlarsiz sof o'ziga xos fermentlangan sut va kuchli solod hidi va ta'miga ega.	Geterogen

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yogurt tarkibiga bug'doy va arpa solodlaridan 1,0-1,5% qo'shilganda, yogurtning ta'mi va hidi o'ziga xosligini saqlab qoldi, 3-5% qo'shilganda yogurtda undirilgan boshqoqli don solodining kuchli yoqimli ta'mi va hidi sezildi hamda, tayyor bo'lgan yogurt massasi saqlanish davrida o'zining gomogenligini yo'qotdi. OOQ ning miqdorini ortib borishida esa, yogurt ta'mi o'rniga oziq-ovqat qo'shilmalarning ta'mi ustunlik qilib bordi. Yogurt ishlab chiqarishda undirilgan bug'doy va arpa solodlari hamda, ular asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalaridan yogurt massasiga nisbatan maksimum 1,5 % miqdorida qo'shish, olinadigan yogurtlarning organoleptik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qilmasligi aniqlandi va optimal miqdor sifatida qabul qilindi.

Solodlar va ular asosida olingan OOQ lari bilan boyitilgan yogurtlarning organoleptik, sanitar-bakteriologik va mikrobiologik hamda, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga to'liq javob berishi isbotlandi. Ishlab chiqilgan tarkibli oziq-ovqat qo'shilmalari, bug'doy va arpa solodlari va ular bilan boyitilgan tarkibli yogurtlarning tarkibidagi og'ir metal tuzlari, xlororganik pestitsid qoldiqlari va mikrobiologik ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi SSV SEO va JSK Andijon viloyat boshqarmasi sanitariya-gigiyena laboratoriyasida tekshiruv ob'ektlari SaNQ va M 0366-19 talablariga mos kelishi isbotlandi va iste'molga tavsiya qilindi. Xalq tabobati uchun mo'ljallangan biologik faol qo'shimchalar bilan boyitilgan yogurtlarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Boyitilgan yogurtning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

№	Tarkibi	Me'yor	An'anaviy retseptura bo'yicha	Taklif qilingan retseptura bo'yicha
1	Moyning umumiy miqdori,	1,0% dan kam emas	1,0	1,0
2	Sut oqsilining umumiy miqdori	2,8% dan kam emas	3,4	3,0


3	Umumiy oqsil miqdori	4,2 % dan kam emas	4,3	5,1
4	Kislota soni, 100 gr q.m.n. 0,1 n NaOH	75 °T dan 140 °T gacha	80	85
5	Fosfataza miqdori	Mumkin emas	Aniqlanmadi	Aniqlanmadi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, taklif qilingan retsepturaga asosan yogurt tarkibiga 1,5% miqdorida ishlov berilgan undirib, quritilgan bug'doy va arpa donlaridan olingan solod va ular asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalaridan qo'shib, xalq tabobati uchun mo'ljallangan tarkibi boyitilgan yogurt tayyorlanganda, an'anaviy retsepturaga nisbatan tarkibidagi sut oqsilining umumiy miqdori 0,4% ga kam bo'ldi, kislotalilik ko'rsatkichi 5 °T ga yuqori bo'ldi. Shu bilan birga olingan yogurt tarkibidagi umumiy oqsil miqdori an'anaviy retsepturaga nisbatan 1,1% ga yuqori bo'ldi.

Taklif qilingan retsepturaga asosan korxonada boyitilgan tarkibli yogurtdan bir yilda 1,0 tonna ishlab chiqarilganda, qo'shiladigan meva qo'shilmalarining massasini 1,5% ga qisqartirishiga erishish imkoni yaratildi. Yogurt sifatini saqlanish davrida buzilmasliligini ta'minlovchi import hisobiga keltiriladigan kimyoviy reagentlarning sarfini kamayishi va yogurt tarkibini boyitish uchun qo'shiladigan ingridiyentlarning tayyorlanishini arzonligi, xom-ashyolarning mahalliy ekanligi va zahiralarning mavjudligi, evaziga, iqtisodiy samaradorlikga erishish mumkinligi isbotlandi.

Oziq-ovqat qo'shilmasi yordamida yogurt tarkibini boyitishda, olingan komponentlar tabiati va tarkibidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, mayiz uglevodga, yong'oq oqsil va moyga, solod suvda eruvchi oqsil, makro va mikroelementlarga boy bo'lishi bilan, namlikka ham egadir. Solod tarkibidagi namlikni maksimal darajada tushirish chegarasi 13,5-14% ekanligi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldi. Solod tarkibidagi namlikni kritik nuqtasidan pasaytirish solodni foydalilik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi o'rganildi.

Shu bilan birga, solod tarkibidagi 14% namlik va fermentatsiya jarayonini mavjudligi, solod tarkibidagi suvda eruvchan oqsillarni gidrolizlanishiga etarli bo'ladi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "NUB-bug'doy" va "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi komponentlar, o'zining optimal namligida o'zgarishga uchramaydi. Biroq yogurt tarkibiga "NUB-bug'doy" va "NUB-arpa" OoQ dan 1,5% miqdorida qo'shilganda yogurt tarkibidagi suv va fermentlar ta'sirida yuqorida keltirilgan jarayonning intensivligi sezilarli ortishi kuzatiladi va boyitilgan yogurtlarning kislotaliligi keskin ortishiga olib keldi. Kimyoviy jihatdan kislotalilikni ortishi yoki kamayishi mikroorganizmlarni ya'ni laktobakteriyalarni ko'payishiga olib keladi. Natijada yogurtning konsistentsiyasiga salbiy ta'sir qilishi bilan birga ta'miga ham ta'sir qiladi va yogurtning saqlanish muddatlarini keskin qisqarishiga olib keldi. Olingan tadqiqot natijalari quyida keltirilgan.




2-Rasm. Yogurt kislotaliligini vaqt birligi davomida o'zgarishi

Grafikdan ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat qo'shilmalari qo'shib tayyorlangan yogurtlarning dastlabki kislotaliligi 80 T° tashkil qilgan bo'lsa, dastlabki 4 soat davomida kislotalilikni keskin "NUB-bug'doy" oziq-ovqat qo'shilmasi bilan boyitilgan yogurtda kislotalilik 147 T° "NUB-arpa" bilan boyitilganda esa 152 T° tashkil qildi. Boyitilgan yogurtlarning kislotaliligini o'zgarishi 8 soatdan so'ng sekinlashishi kuzatildi. Kislotalilikni 6 soat mobaynida bunday keskin ortishi natijasida, yogurt konsistentsiyasini yo'qotib, sut zardobini ajralishi kuzatildi. Boyitilgan yogurtlarning organoleptikasini bunday o'zgarishni vujudga kelishi, oziq-ovqat qo'shilmalari bilan boyitilgan yogurtlarni maksimal 4-5 soat saqlash mumkinligini izohlaydi.


Tadqiqotlarimiz doirasida olingan "NUB-bug'doy" va "NUB-arpa" oziq-ovqat qo'shilmalari bilan boyitilgan yogurt na'munalarining saqlanish muddati davomida organoleptik ko'rsatkichlarida kuzatilgan salbiy o'zgarishlari sababli, tovar ko'rinishida ishlab chiqarish iqtisodiy jixatdan samarali emas xamda xalq tabobati uchun mo'ljallangan yogurtlar olishda bug'doy va arpa solodlarini o'zidan foydalanilish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelinib, olingan tovarlarga "Asday" va "Astiy" deb nom berildi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida, "Asday" va "Astiy" tovarlarining tarkibidagi fenol birikmalar, kofein va vitaminlar miqdorlari YuSSX usulida tahlildan o'tkazildi.

